

Nilufar Buxarova

*O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti
Teatr san'ati yo'nalish i magistranti
E-mail: nilufarbuxarova2503@gmail.com*

URUSH SOYASIDAGI MUHABBAT

Annotatsiya. Ushbu maqolada Chingiz Aytmatov qalamiga mansub “Jamila” qissasi asosida sahnalashtirilgan, spektakl tahlil etiladi. Unda rejissyorlik, aktyorlik mahorati, rassom ishiga ahamiyat berilib, ayniqsa spektakllarning g'oyaviy - badiiy xususiyatlariga e'tibor qaratiladi.

Kalit so'zlar: teatr, dramaturg, rejissyor, spektakl, drama, aktyor, obraz, janr.

LOVE IN THE SHADOW OF WAR

Abstract. This article analyzes the spectacle performance based on Chingiz Aytmatov's novella “Jamila”. This study focuses primarily on the artistic skills of directors and actors, the artistry work of the production designers and, in particular, the ideological and artistic features of the performance.

Keywords: theater, playwright, director, performance, drama, actor, image, genre.

Haqiqiy muhabbat bu jasorat, u insonni kurashishga undaydi.
(Chingiz Aytmatov)

XX asr qirg'iz adabiyotining eng iste'dodli va jahonga tanilgan yirik namoyandasi, Qirg'iziston xalq yozuvchisi Chingiz To'raqulovich Aytmatov asarlari o'zbek xalqining ham e'tiboriga tushgani bilan ahamiyatlidir. Adibning “Jamila” qissasi turli xalqlar, jumladan, o'zbek, qozoq, qoraqalpoq, turk, ingliz, nemis, fransuz, yapon hamda boshqa ko'plab tillarga tarjima qilingan.

Chingiz Aytmatovning “Jamila” asari inson erkinligi, ichki dunyosi va haqiqiy baxt nimada ekanini ko'rsatadi. Qissada Jamila va Doniyor o'rtasidagi muhabbat orqali inson qalbidagi sof tuyg'ular tasvirlanadi.

Adib ayollarning jamiyatdagi o'rnini haqida mushohada yuritadi. Bunda ayolning nafaqat oila bekasi, balki mustaqil shaxs ekanini qahramonlar timsolida ko'rsatib o'tadi. Qissada Jamilaning xatti-harakatlarida allaqanday jo'shqinlik, erkaklarga xos fazilat bor. Jamila dilida borini aytadigan, boshini egib turmaydigan, juda sho'x, yosh bolalarcha erkato'y, o'jar, birovga haqini bermaydigan, cho'rtkesar, gapga usta qiz. Jamila o'z baxtini topish uchun jasorat ko'rsatgan ayoldir.

Har bir spektaklda rejissyor-aktyor, xonanda-sozanda, rassom hamda tashkilotchilar bilan birgalikda ish yuritish odat tusiga kirgan [1, 559-b].

Jumladan, "Jamila" qissasi ham Asil Rashidov tarjimasi, Uchqun O'sarov insseniroykasi asosida O'zbekiston davlat drama teatrida (2018) G'ofur Mardonov rejissyorligida sahnalashtirilgan.

Asar voqealari ikkinchi jahon urushi yillarida sodir bo'ladi. Unda oddiy bir qishloq qizi Jamilaning achchiq qismati haqida so'z boradi. Jamilaning boshiga tushgan sinovli kunlar, ketma-ket muammolarga duch kelishi, taqdir yo'llarini tubdan o'zgartiradi. Avval uni Sodiq tomonidan o'g'irlab ketilishi, to'ydan keyin kutilmaganda dahshatli urushning boshlanishi ikki qalbni ikki tarafga ajratadi. Sodiq urushga ketib, Jamilaning yolg'iz qolishi, shuning oqibatida atrofdagilarning qilgan turli tazyiqlari qizni har tomonlama sinaydi.

Jamila chavandozlar oilasida tug'ilib, ulg'ayganligi bois bolaligidan ot minib o'sganligi uni doim poygalarda ishtirok etishiga sabab bo'lgan.

Oradan yillar o'tib, o'spirin yoshdagi Jamila poygada qatnashib, g'olib bo'ladi. Ammo xursandchiligi uzoqqa bormaydi. Chunki, shu kunning o'zidayoq Sodiq degan begona yigit tomonidan o'g'irlab ketiladi. O'yinda "ayol" kishiga yutqazganligi bois, mag'lubiyatga chiday olmagan Sodiq shu ishga qo'l uradi. Qisqa muddat ichida Sodiq bilan Jamilaning to'yi bo'ladi.

Sahnada qirg'iz xalqining urf-odatlarini, kuy-qo'shiqlari, rang-barang liboslari orqali sho'x-shodon asar qahramonlarning o'yin-kulgiga boy tarzda raqslari bilan ikki yoshning to'yi bo'lyapti. Shu payt xatarli voqealarni bildiradigan ovoz eshitiladi. Bu esa urush boshlanganini anglatar edi. Hamma bu ovozdan talvasada,

to'y to'xtatilib, sahna oldida navqiron yigitlar paydo bo'ladi. Ayollar esa ularga belbog' bog'laydilar. Momo yigitlarga rizqi uzilmasin degan maqsadda, non tishlatadi va quyidagi: "Buyuk Manasning ruhi shod bo'lsin", – degan, so'zlarni aytib ularni urushga kuzatadi.

Jamila oddiy, mehnatkash oilaning kelini. Oila katta, unda keksa buvining o'rni va yo'l-yo'riq ko'rsatishi hammaga birdek. Jamilaning yangi kelin bo'laturib, urush sabab, yolg'iz qolishi va yangi xonadonga ko'nikishida buvining o'rni katta.

Tarixdan ma'lumki, urush yillari barcha erkaklar jangga olib ketilgach, barcha yumushlar, ayniqsa, dala ishlari ayollar zimmasiga yuklatilgan. Jamila ham boshqa ayollar kabi dalada ishlaydi. Jigarlaridan uzoqda yashayotgan Jamila o'z sog'inchlarini sovitish uchun ish bilan chalg'iydi. Butun og'ir yumushlar, hayot qiyinchiliklari, farzand tarbiyasini o'z gardanlariga olgan ayollar bitta umid, ya'ni yaqin insonining bir misra maktubini kutib, shunga ovunib kun o'tkazadi. Kelgan xatlar ayollarni bir daqiqaga bo'lsa-da, butun tashvishlardan chalg'itib, xursand qiladi. Jamila esa ularga bir chekkada qarab, havas ko'zi bilan kuzatib turar edi. Bu orada eridan xat kelmagach, o'zini ruhan yolg'iz his qila boshlaydi. Jamila uzoqdan bo'lsa-da, Sodiqdan mehr ko'rmaydi, lekin undan maktub kelishini intizorlik bilan kutadi.

Ba'zan ota-onasiga kelgan maktublarda ham Jamilaning nomi tilga olinmas edi. Shunda Jamila maktubdan o'ziga tegishli so'zlar yozilmaganini anglab ko'ngli battar o'ksiydi. U g'azabdan bor alamini o'g'ircha (don maydalagich)dan olganday, bor kuchi bilan uni qattiq-qattiq ura boshlaydi. Go'yoki shu bilan barcha muammolari hal bo'lgandek edi.

Oilada yagona suhbatdoshi, uning qayin ukasi Seit edi. Atrofdagi ba'zi insonlarning tazyiqi, eri unga sevib uylanmagani va poygada yutqazib, uni olib qochganligini, Jamila birma-bir Seitga gapirib beradi. U hammasiga ko'nib, hayot degani shu ekanda, degan qarashlar bilan yashashda davom etadi.

Jamila dalada boshqalar kabi ayol boshi bilan yuk tashirdi. Brigada boshlig'i, urushdan yaralanib qaytgan Doniyorni Jamila bilan yuk tashish uchun yuboradi.

Jamila sho'x, shodon qiz emasmi, Seit bilan Doniyorga hazillar qilardi. Doniyor Jamilani ba'zan himoya qilgan holda daladagi ishlariga yordam berar, Jamila mehrga muhtoj ekanligidanmi, Doniyorning qilgan ko'magidan mehr ko'rgandek o'zini baxtiyor his qilardi. Shu tufayli o'zi bilmagan holda unga nisbatan muhabbat tuyg'usi paydo bo'ladi. Jamila ham sevgan insoni bilan baxtli bo'lishni xohlaydi.

Aktrisa Malika Avazova bu obrazi bilan ayolning o'z baxti uchun kurashi, sevgiga bo'lgan ishonchini ochib bergan. Urushdan yaralanib qaytgan, Doniyor ovuldagi boshqa erkaklardan og'ir vazminligi, halolligi bilan ajralib turadi. Shu sababdan Jamilaning ko'nglida unga nisbatan ilqlik paydo bo'ldi. Ikki qalb o'rtasida muhabbat shu qadar tez rivojlanib boradi. Jamila Doniyorni tanlab bo'ldi. Doniyor ham unga befarq emas [2, 7-b].

Vaqt o'tib, Jamilaning eri Sodiq urushda yaralanib, gospitalga tushgani haqida xabar keladi. Uni qaytib kelishini eshitgan Jamila o'ylanib taajjublanadi. Ammo kelgan xatni Jamila o'qib ham ko'rmaydi. Shu tun Jamila, Seit, Doniyor dalada qoladi. Jamila Doniyorni yoniga borib, unga xatni ko'rsatadi. Jamila: "Seni shunga alishtirmayman, bilasanmi, Doniyor u meni sevgan emas, sevmaydi ham, endi kim nima desa deyaversin menga baribir, bilasanmi, bilasanmi men seni sevib qolganman Doniyor", – deb, maktubni siqimlab uloqtirib tashlaydi.

Doniyor kutilmaganda Jamiladan bu ta'sirli so'zlarni eshitib, gangib qoladi va anchadan beri ichida saqlab kelayotgan so'zlarini aytishga jur'at topadi. Mehrga to'la ko'zlari, muhabbatga to'la qalbi bilan Jamilaga boqib, "Bir paytlar mendan so'ragan eding, kimnidir sevganmisan? deganingda, sevmagan edim. Endi bo'lsa sevaman. Ha Jamila men seni sevaman", – deya uni bag'riga bosadi. "Jamila men bilan ketasanmi?", – Jamila Doniyorning bu kutilmagan so'zidan sevinib, "ha, qayoqqa desang ham mayli", – deb javob beradi.

Aktyor Suhrob Xurramovning ijrosidagi Doniyor odamovi, bo'y-basti kelishgan, og'ir vazmin, halol yigit bo'lib gavdalangan. Uning ko'zlarida g'amginlik, hatto so'zlarida iztirob sezilib turadi. Spektakl voqealari shu tarzda

rivojlanib boradi. Jamila narsalarini olib Seit bilan xayrlashib: “Bilasanmi kichkina bola, men hayotda o‘z yo‘limni topdim, bir kun kelib, albatta, sen ham o‘z yo‘lingni topasan faqat meni kechir”, – deb, Doniyor bilan ketadi.

Seit Sirojiddin Sattorov ijrosida hikoyachi bo‘lib, voqeani tomoshabinga yetkazuvchi shaxs sifatida namoyon bo‘ladi. Jamila va Doniyor o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni bilgan, hatto guvoh bo‘lgan Seit ba’zi hollarda uni qizg‘onadi, ba’zan jismonan kuchi yetmasada, atrofdagilardan himoya qiladi. Seit yosh bola bo‘lishiga qaramasdan, kelinoyisi Jamilani tushungan yagona inson.

Sodiq Sa’dulla Niyozov ijrosida o‘ta ta’sirchan, diologlarni ichki kechinmalari orqali ko‘rsata olgani bilan tomoshabinga qahramonni qiziqтира olgan. Erkak sifatida g‘ururi baland, dangal gapiradigan, oldiga qo‘ygan maqsadiga erishadigan qaysar yigit. U Jamila bilan turmush qurgach, ko‘p yashamaydi shuning uchun eslashga loyiq shirin xotiralari yo‘q. Chunki to‘yidan ko‘p o‘tmay, urushga ketishi uning barcha orzu-umidlarini yo‘qqa chiqaradi. Ba’zan ora-orada ota-onasining ahvolidan xabar olib xat yozib tursada, xatning so‘nggi jumlasida “xotinim Jamila ham eson-omon yuribdimi” degan bir satr gapi, Jamilani qaysidir ma’noda mehrga tashna qalbiga taskin bermaydi.

Rejissyor har bir obrazning o‘ziga xos xususiyatlarini, qahramonlar hayotidagi muhim holatlarni yorqin ochishga erishgan [3, 33-b].

Haqiqatdan ham rejissyor talqinidagi bilim va mahorat qahramonlar talqinida ko‘rsatilgan. Spektaklda momo obrazining tasvirlanishida, qirg‘iz ayollarining irodasi, kuchi, oilaparvarligi singdirilgani ko‘rsatilgan. Aziza Bekmatova ijrosidagi Momo (qaynona)obrazi juda samimiy, tabiiy va hayotiy ijro etilgan. Aktrisaning ovoz ohangidagi muloyimlik, yengil xatti-harakatlari, sodda, mehribon, sabr-toqatli va kuchli ayol ekanligini ko‘rsatadi.

Spektaklda kelin va qaynona eng yetakchi obrazlardan biri sifatida aks ettirilgan. Jamila Doniyor bilan qochib ketganidan so‘ng momo: “O‘zingni o‘tga tashlading, Jamila! Sen bu uyda kimdan yomonlik ko‘rding? Nega ketding, nega?”– deya chuqur iltirob va alam bilan faryod chekadi. Uning tasavvurida ayolning baxti

ro'zg'or ishlari, pishir-kuydir, supir-sidir hamda oila xizmatida bo'lishdir. Momo nazarida ayol uchun bundan ortiq baxt yo'q [4, 28-b]. O'rozmat og'a Nodir Mirzaahmedov ijrosida tajang, qattiqqo'l, qahramon sifatida gavdalanadi. Frontning dahshatli kunlari O'rozmat og'ani ham chetlab o'tmadi. Oyog'idan lat yeb qaytgach, qishloqda brigader boshlig'i bo'lib ishlaydi.

Usmon Akbar Omonto'rayev ijrosida nimadandir alami bor, jahldor, salbiy qahramonlardan biri sifatida tasvirlangan. U hamma urushga ketgan paytida o'zini kasalman deb qutqarib qolgan. Qishloqda yaqinlarini frontga kuzatgan xotin-qizlar turmushning barcha yumushlarini o'z zimmasiga olib, ishlashga majbur bo'lgan. Usmon ayollarni tarjimai holini yaxshi biladi, ammo Jamilaning yosh va ojizligidan foydalanib, ishda yolg'iz qolgan kezlar unga ortiqcha xatti -harakatlar va bachkana so'zlari bilan tegajoqlik qiladi. Bu kabi tazyiq, ruhiy zo'ravonliklar Jamilaga boshqa kimsalar tomonidan ham kundan-kunga ortib borgani uni qiynaydi. Bu orada hayotida Doniyorning paydo bo'lgani unga ancha taskin beradi.

Men Jamilani kuchli, jasur, quvnoq ayol sifatida ko'z oldimga keltirdim. U o'z orzulari, istaklarini amalga oshirish uchun kurashgan ayol. Bu asar insonlarni, o'zini anglash, kurashishga undaydi.

Asarda avval Seitning chizgan surati haqida gap ketadi. Suratda esa ikki yo'lovchining oyoq izlari tasviri bor edi. Sahnada esa qirg'iz xalqining milliy koloriti ko'rsatilgan. Qishloq aholisi urush xabarlarini eshitish sahnalarida esa ranglar sovuq, yorug'lik pasaytirilgan, bu dramatik keskinlikni kuchaytiradi. Tunda sahnalarda fon orqasida ko'k chiroq yoki oy shaklidagi yorug'lik beriladi. Qahramonlar kiyimlari o'sha davrga (urush yillari) mos bichimda tasvirlangan. Rassom Sergiy Chufarnov tomonidan spektakldagi tanlagan har-bir dekoratsiyalari ramziy ma'noga ega. Sahnaning atrofidagi panjaralarda go'yoki adirlar, tog'lar tasvirlangandek. Sahna o'rtasida yumaloq shaklda o'tovni eslatadigan dekoratsiya o'rnatilgan. Uning charxpalakdek aylanishi hayot yo'llarini bildiradi. Yana arava, ko'prik, urush yillarining jimjit kechasini ifodalovchi fonlar ishlatiladi.

Ko'prik – hayot yo'li, tanlovning ramzi. Arava – inson taqdiri. Arava uchun

g'ildiraklardan foydalanilgan. G'ildiraklarda go'yoki umr yo'llari tasvirlangandek. Momoning paxta savashi qishloq hayotiga xos yumushlarga ishora.

Rejissyorning talqini orqali Jamila o'z baxti uchun kurashishi, ayollik sha'ni, inson erkinligi, qadr-qimmatini himoya qiluvchi timsol sifatida gavdalanadi. Rejissyor spektaklda voqeani ichki monologlar, musiqiy ohanglar va ranglar orqali berishga harakat qilgan. Inson yuragidagi sevgini hech qanday urf-odat yoki bosim yenga olmaydi. Rejissyor va aktyorlar asarni sahnada hayotiy, hissiy va estetik jihatdan chuqur talqin etgan.

Muallif yashagan yillarga e'tibor bersak, bo'lib o'tgan voqealardan ta'sirlanib bu qissaga qo'l urganligi yaqqol namoyon bo'ladi. Bir qarashda go'yoki oddiy bir oilaning hayoti haqida deb o'ylaysiz, lekin unday emas, shu oila jamiyatning bir bo'g'inidir. Oiladagi qahramonlarning taqdirida butun bir xalqning taqdiri aks etgandek.

Urush qurbonsiz bo'lmaydi. Urush paytida ko'plab oilalar boquvchisini yo'qotdi. Onalarimiz yor-u birodarlarini, bolalarini, aka-ukalarini urushga yuborib yo'lga intizor bo'lgan. Har bir oilaning boshiga ko'plab musibatlar tushib, yoshlarni barvaqt ulg'aytirdi.

Ikkinchi jahon urushida 20 million askarlar qurbon bo'lgan.

Shu jumladan, urush keltirgan talafotlar ham insonlarning qalbida so'nmas iz qoldirgan. Qaysi davrda bo'lmasin, urush voqealari haqida yozilmas ekan, kelajak avlod kechagi kunini bilmay ulg'ayadi.

Bugun yuqorida fikr bildirilgan urush mavzusi yurtimizning barcha teatrlari repertuaridan joy olgan. Bu esa tomoshabinda tinchligimizning qadriga yetish, yaqinlarini asrab-avaylashga undaydi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, dramaturg bu qissasida sevgi orqali insonning haqiqiy tuyg'ulari va unga qarshi jamiyatdagi ziddiyatlar va ular orasidagi to'qnashuvlarni aks ettirgan. Shu ziddiyatlar, qiyinchiliklarga qaramasdan Jamila o'z sevgisiga erishish uchun kurashgan ayol. "Jamila" asarida sevgi-muhabbatning

go'zal tuyg'u ekanligi, hamma insonlar ham o'z sevgisiga erishish uchun jasorat topolmasligi ifodalangan.

Ayol qalbi nozik va u mehr-muhabbatni istaydi...

Foydalanilgan adabiyotlar

1. *Aytmatov Ch. Jamila.* – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2018. – 430 b.
2. *To'robova M. Jamila //Teatr.* – 2023. – №2. – B. 7-8.
3. *Tursunov T. XX asr o'zbek teatri tarixi.* – Toshkent: Art Press Co. Ltd, 2010. – 586 b.
4. *Tursunov T. Sahna va zamon.* – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2007. – 415 b.